# QASHQADARYO VILOYATI MIRISHKOR TUMANI HOKIMINING QARORI

181000 O'zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani Yangi Mirishkor shaharchasi, tel: 652-18-58, 652-10-34, faks-652-14-65, 652-19-48

2023 - yil 16 - may 87-4-63-Q/23 Mirishkor tuman hokimligi

**Yo‘l transport hodisalarini barvaqt oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari” ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Mirishkor tuman ichki ishlar bo‘limining 2023 yil 19 apreldagi 46/1485-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonuni 6, 25-moddalariga (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1993 y., 9-son, 320-modda) asosan,

**QAROR QILAMAN:**

1. Mirishkor tuman ichki ishlar bo‘limining 2023 yil 19 apreldagi 46/1485-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Tumanida yo‘l transport hodisalarini barvaqt oldini olish hamda tirbandliklarni bartaraf etish maqsadida ilovaga muvofiq tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Tuman “Obodonlashtirish boshqarmasi” (S.Shoqulovga)ga “Jeynov” shaharchasidagi ichki yo‘llarga yo‘l belgilarini o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

4. Yo‘l harakati qatnashchilari “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni va “Yo‘l harakati qoidalari”ga muvofiq o‘rnatilgan ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, axborot-ishora belgilari hamda svetofor ishoralari, yo‘l chiziqlarining talablarini bilishlari, ularga amal qilishlari, shuningdek berilgan vakolat doirasida yo‘llarda harakatni tartibga soluvchilarning ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajarishlari shart.

5. Tuman IIB YXHG (Y.Hamroyev) tomonidan yo‘l belgilari o‘rnatilishi hamda transport vositalarining harakati kunlik nazorat qilib borilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Eshmurodov zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Tuman hokimi** **Sh.Ch.Sanayev**

Mirishkor tuman hokimining
2023 yil 16 maydagi
87-4-63-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Jeynov shaharchasi “Obodonlashtirish boshqarmasi” hisobidagi ko‘chalarga o‘rnatiladigan yo‘l belgilari dislokatsiyasi**

| T/R | Yo‘l belgilari nomi | Joylashtirish joyi | Soni (dona) |
|---|---|---|---|
| **Mirishkor tumani** | | | |
| 1 | Jeynov shaharchasidan o‘tuvchi 4 P 92 “Qarshi-Talliqo‘rg‘on-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 49-50 km oralig‘ida “To‘xtab turish taqiqlanadi” “3,27” yo‘l belgisi o‘rnatish | Jeynov shaharchasi | 3 dona |
| 2 | Jeynov shaharchasidan o‘tuvchi 4 K 346 “Jeynov-Qamashi” avtomobil yo‘lining 0 kmda “To‘xtab turish taqiqlanadi” “3,27” yo‘l belgisi o‘rnatish (Jeynov-Qarshi yo‘nalishida) | Jeynov shaharchasi | 1 dona |
| 3 | Jeynov shaharchasidan o‘tuvchi 4 K 346 “Jeynov-Qamashi” avtomobil yo‘lining 0 kmda “To‘xtab turish taqiqlanadi” “3,27” yo‘l belgisi o‘rnatish (Qarshi-Jeynov yo‘nalishida) | Jeynov shaharchasi | 1 dona |
| 4 | Mirobod MFY hududidan o‘tuvchi 4 K 346 “Jeynov-Qamashi” avtomobil yo‘lining 6-10 km oralig‘ida “Quvib o‘tish taqiqlanadi” “3,20” yo‘l belgisi o‘rnatish | Nurafshon hamda Mirobod MFY | 4 dona |
| 5 | Yangi Mirishkor MFY hududidan o‘tuvchi 4 K 278 “Qarshi-Kasb” avtomobil yo‘lining 0-6 kmlari oralig‘ida “Quvib o‘tish taqiqlanadi” “3,20” yo‘l belgisi o‘rnatish | Yangi Mirishkor MFY | 2 dona |
| 6 | Guliston MFY hududidan o‘tuvchi 4 K 236 “Qovchin-Chandir-Qamashi-Alang” avtomobil yo‘lining 0-12 kmlari oralig‘ida “Quvib o‘tish taqiqlanadi” “3,20” yo‘l belgisi o‘rnatish | Guliston MFY | 2 dona |
| 7 | Shodlik, Chandir va Jeynov MFYlari hududidan o‘tuvchi 4 R 278 “Beshkent-Navro‘z-Chandir-Jeynov” avtomobil yo‘lining 47-56 kmlari oralig‘ida “Quvib o‘tish taqiqlanadi” “3,20” yo‘l belgisi o‘rnatish | Shodlik va Chandir MFYlari | 2 dona |
| 8 | Baluj MFYdan o‘tuvchi 4 P 92 “Qarshi-Talliqo‘rg‘on-Kasbi-Jeynov-Pomuq” avtomobil yo‘lining 44-47km.lari oralig‘ida “Quvib o‘tish taqiqlanadi” “3,20” yo‘l belgisi o‘rnatish | Baluj MFY | 2 dona |